



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
MUAMMO VA YECHIM**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

Buxoro, 21-oktabr, 2024-yil

“Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2024. – 136 b.

Mas’ul muharrir

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Rajabov D.Z.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Asadov T.H.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchilar**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Ahmadova U.Sh.**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Hamroyeva M.R.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqola va tezislarining mazmuni, ularda keltirilgan ma’lumotlar, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Giden Çocukları örneğiyle genç neslin memleketinden, anadilinden ve milli geleneklerinden yabancılaştırması/yozaştırması sorununu ortaya koymuştur.

Türk dünyası edebiyatının ve kültürünün tanıtılmasında çeşitli yayınevlerinin de rolü büyüktür. *Bengü* Yayınevi bu doğrultuda aktif çalışmalar yürütmektedir. Ayrıca Türkiye Devlet Televizyon (özellikle TRT Avaz) kanalları, Türk dünyasındaki güncel sorunların haberine büyük önem vermektedir. Kendi hayatlarını Türk halklarının kalkınmasına ve bilinçlenmesine adanmış aydınları ve tarihi şahsiyetleri tanıtan çeşitli televizyon programları (*Köklerin İzinden, Türk Dünyasının Enleri* vs.), hem genç neslin hem de bir bütün olarak Türk nüfusunun büyük ilgisini çekmektedir.

Kaynakça:

- 1.Kolcu A. İ. (2010). Çağdaş Türk Dünyası Edebiyatı, Salkımsöğüt yayınları, Erzurum.
- 2.Türk Dünyası Çağdaş Edebiyatları El Kitabı (2018). Kesit Yayınları, Ankara
- 3.Türk Dünyası Ortak Edebiyatı. Türk Dünyası Edebiyat Tarihi. IX. Cilt. (2007). Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı, Ankara.
- 4.Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. e-kitap. T.C. Kültür bakanlığı yayınları.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b.

O'ZBEGIM TILIDAGI MILLIY XOTIRA O'LMASIN

**Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,
BuxDU professori, f.f.doktori (DSc)**

Tilning millat ruhi, tafakkur voqeligi ekanligini chuqur anglagan ziyolilar, fan arboblari-yu mutaxassislar, hukumat rahbarlarining sa'y-harakatlari o'laroq o'tgan asrning oxirgi o'n yilligida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgani, shukurki, rost. Shundan beri o'tgan o'ttiz besh yil davomida til-u tilshunoslik ilmida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o'zbek milliy grammatikasining yaratilishiga keng yo'l ochilishi, boshqa millat vakillarining tilimizni o'rganishga intilishlari, xorijiy mamlakatlarda yetti yuzga yaqin o'zbek tili markazlarining tashkil etilishi millatimizga, uning tarixi, buguni, ertasiga, tiliga, madaniyati, ma'naviyatiga bo'lgan e'tibor va qiziqishdan dalolat beruvchi faktlardir. Internet xabarlariga ko'ra, shu kecha kunduzda Amerikaning sakkizta, Yaponiyaning yana sakkizta, Germaniyaning to'rtta, Turkiyaning o'n sakkizta nufuzli oliygohlarida o'zbek tili o'qitilmoqda. Dunyo hamjamiyatida tilimizning nufuzi yuqorilab borayotganligi, jahon tilshunoslari, lison ilmi mutaxassislarining o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlari ortayotganligi quvonarli hol, albatta.

Yurtimizning dunyo xalqlari bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy aloqalar o'rnatayotganligi til borasida ikki muhim vazifa mas'uliyatini zimmamizga yukladi. Bular

–
birinchidan, respublikamizda ona tili va o'zbek tili ta'limini (bu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liq, ammo bitta mohiyatni ifodalamaydi) grammatizmdan to'la-to'kis amaliy tilshunoslikka o'tkazish;

ikkinchidan, xorijda o'zbek tili ta'limi uchun mutaxassislar, ta'limiy vositalar tayyorlash, zaruriy metodikalar ishlab chiqish va ularning amaliy tatbiqini ta'minlash.

Istaymizmi, yo'qmi, tan olishga majburiy: biz qariyb bir yarim asrga yaqinroq vaqt mobaynida ruslashtirish siyosati bilan bog'liq tarzda dunyodan uzilib yashadik. Sovet davrida o'zbek tili davr siyosati belgilagan maqsad asosida Moskva, Peterburg oliygohlaridagina o'qitildi, xolos. Bu cheklovlarning zaqqumli ta'sirini bugun aksariyatimiz his etib turibmiz.

Birinchi masala xususida ikki og'iz mulohaza. Respublikamizda ona tili va o'zbek tili ta'limini grammatizmdan to'la-to'kis amaliy tilshunoslikka o'tkazish muammosini shunchaki hal etib bo'lmayapti. Garchi yurtimizdagi oliygohlarning filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishlarida "Amaliy tilshunoslik" kafedralari ochilgan, kafedra mohiyatidan kelib chiqib fanlar ta'limi yo'lga qo'yilgan, shu fanlarga tegishli namunaviy, ishchi dasturlar va hatto kalendar rejalar

ishlab chiqilib keng amaliyotga joriylangan bo'lsa-da, bu borada yakdillik yetishmaydi. Nega?! Bu savolga muxtasar javob shu: amaliy tilshunoslikning o'z mehridayan chiqib ketmasligini, bu borada og'ishmasligini tilshunoslikning grammatik qonun-qoidalariga belgilab beradi.

Grammatik qonun-qoidalar amaliy tilshunoslikning poydevori, uning asosini saqlab turuvchisi sanaladi. Aslida, nutqda grammatik qonun-qoidalariga bo'ysunmaslik xalq, millat ma'naviyatining "joni", "qoni" va "ruhi" bo'lgan tilning buzilishiga olib keladi. Oddiy bir misol. Bugun ko'pchilik ziyolilar ommaviy axborot vositalarida, masalan, televideniye yoki radiodaga chiqib bemalol o'z shevasida gapirishdan tortinmaydi. Zero, til shunchaki gapirish yoki yozish vositasigina emas, til millatning tiynati, shu tilda so'zlashuvchi har bir kishining ma'naviyati, madaniyati, tarbiyalanganlik darajasini aniq aks ettiruvchi dil oynasidir.

Odam zoti umri davomida o'zida, o'zligida jamlagan barcha jihatlarni, ya'ni olgan ta'lim-tarbiyasining asl natijasi(xarakter, xususiyati)ni tashqi ko'rinishida, yurish-turishida, yashash tarzida yashirishi (chin zohirini botinida tutishi) mumkin. Ammo buni har zamonda uning gap-so'zlari oshkor etib qo'yaveradi. Shu bois, dono xalqimiz o'z maqollarida: "O'ziga boqma, so'ziga boq" deya ogohlantiradi. O'zbek tilida so'zlovchi, shu tilni o'z ona tilim deb bilguvchi mansabi, yoshi, mavqeyi, unvoni, kasbi, hunaridan qat'i nazar, har bir kishi xalqning ovozi, so'zi, yuzi sanaladi. Chingiz Aytmatov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchimizni ado etgan bo'lamiz".

Yuqorida grammatik qonun-qoidalar amaliy tilshunoslikning poydevori, uning asosini saqlab turuvchisi ekanligini ta'kidladik. Tilshunoslik bo'limlari tadqiqida an'anaviy (faqat nutqiy bosqich muammolari bilan shug'ullangan), substansial (tadqiq usullarida tildan nutqqa qarab boruvchi yo'nalish), tavsifiy (tadqiq usullarini nutqdan lisonga qarab davom ettiruvchi), antroposentrik (shaxs nutqidan uning tiliga qarab boruvchi) yo'nalishlarning yutuqlari e'tirof etilgan va e'tirof etilmoqda. Bir mohiyatga turli tadqiq usullari orqali yondashuv fan rivoji uchun tabiiy va foydali. Ammo respublikamizning butun aholisi lingvist (tilshunos) yoki tilshunoslik ilmidan xabardor yoki lingvistik qonuniyatlarni bemalol "hazm qilish" qobiliyatiga ega kishilar bo'lishi shart emas-ku?! Bu – oddiy aksioma. Aytilganlarni tushungan holda maktab o'quvchisidan tortib o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, hatto oliy ta'limdan keyingi o'qitish bosqichlarida ham tahsil oluvchilarimizni bir-birini goh to'ldirib, goh inkor etuvchi tilshunos yo'nalishlari xulosalari bilan "o'qityapmiz".

Poydevori qiyshiq binoning qad ko'tarib turishi vaqtincha. Biz, avvalo, bu boradagi ichki muammolarimizni hal etib olishimiz shart. Ya'ni tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirib, farzandlik burchimizni ado etishning vaqti ham o'tib ketdi, fikrimizcha.

Kuni kecha ijtimoiy tarmoqda taniqli telejurnalist Ilmira Rahmatullayeva shunday mulohaza bildirdi: "Kecha O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronni "Hayot va xayol yo'llari" ko'rsatuvida ko'rib, "bo'lar ekan-ku", deb yubordim da'fatan... Har qachongidan ham kerak ekan buyuk shaxslar televideniye ekranlariga!!! Aksincha, bugungidek millat boshi berk ko'chaga kirib qolib, Sherali Jo'rayevning nikohsiz o'g'li-yu, Munisaning qorni, Ozodning yangi uchastkasi haqida bahslashib, bu xiyonat, ma'naviyatsizlik, past qarashlar targ'ibotidagi zamonaviy media muhiti boshbodoqliklaridan qanday qilib chiqishni bilmay o'tirmasdi".

Darhaqiqat, bugungi o'zbek media muhiti, ayniqsa, uning nutqi o'zbek tilining, shu til orqali milliy madaniyatining ildiziga bolta urayotganini ko'rib turib beparvomiz.

Ma'no teranligi, ifoda tovlanishlari odamni hayratga soladigan o'zbek tiliga munosabatimizni minbarlardagi balandparvoz so'zlar emas, amaliy faoliyatimiz belgilashi zarurligi hech bir zamon va makonda o'z mohiyatini yo'qotmaydi.

Ikkinchi masala xususida. Xorijda o'zbek tili ta'limi uchun mutaxassislar, ta'limiy vositalar tayyorlash, zaruriy metodikalar ishlab ishlab chiqish va ularning amaliy tatbiqini ta'minlash masalasi "uydan tashqaridagi muammolar"ni bartaraf etish holatiga o'xshaydi. Mazkur muammoning yechimida ham ikki jihatni inobatga olib yondashishga to'g'ri keladi:

1) yurtimizga (qisqa yoki uzoq muddatli) tahsil uchun tashrif buyurgan xorijlik talabalarga o'zbek tilini o'rgatish;

2) xorij oliygohlaridagi talabalarga o'zbek tilini o'qitish.

Har ikkala holatda ham xorijiy talaba va o'zbek tili o'qituvchisining bir-birlarini tushuna olishlari uchun, albatta, umumiy muloqot tili zarur. Tabiiyki, bu ta'lim oluvchining qaysi til u uchun ona tili hisoblanishi bilan yoki u ona tili darajasida egallagan dunyoviy tillardan biri bilan bog'liq bo'ladi. Bu xorij talabasiga dars berishi kerak bo'lgan o'zbek tili o'qituvchisi yana bir yoki bir necha xorij tilini mukammal egallagan bo'lishini taqozo etadi.

Xorij talabasiga (deyarli barcha bo'lajak filolog talabalarga tahsil berilishidagi kabi) faqat o'zbek grammatikasini o'rgatish bilan ish bitmaydi. Tilni o'rgatish jarayoni o'zbek millatining butun tarixi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini, an'ana-yu qadriyatlarini, bugungi turmush tarziga qiziqitira olish bilan bog'lanadi. Shu tariqa xorij talabasi tasavvuri hamda tafakkurida o'zbek lisoniy manzarasi shakllanadi. Sivilizatsiyaga erishgan mamlakatlarning oliy ta'lim tizimida to'laligicha kredit-moduldan foydalanish yetakchilik qiladi va talaba kredit-modul yaratadigan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda fan, fan o'qituvchisi, ta'lim olish o'rnini erkin tanlash huquqiga ega bo'ladi. Agar muayyan fanni o'rganuvchilar soni yetti nafardan kam bo'lsa, o'sha fan o'qituvchisi bilan oliygo'his o'rtasidagi shartnoma bekor qilinadi.

Demak, jahon standartlariga javob bera oladigan o'zbek tili o'qituvchisini tayyorlash uchun respublikamizda filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi talabasiga shu talablarga o'zi javob bera oladigan, tom ma'noda, intellektual salohiyatli mutaxassislar zarur. Tabiiyki, talaba ham shu daraja mezonlariga javob bera olishi tangananing ikkinchi tomoni hisoblanadi. Xorijda o'zbek tili ta'limi uchun ta'limiy vositalarni tayyorlash, zaruriy metodikalarni ishlab chiqish muammosi amaliy tajribalarsiz befoyda mehnatga aylanib qolaveradi. Demak, bu borada ham yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

Yurtimizning kundan kunga chiroy ochib, go'zallashib borayotganligi tahsinga, shukronamizga loyiq: chiroyli imoratlar, ravon yo'llar, ko'zni quvnatadigan gullarning iforli bo'y taratib turishi, zaruriy mahsulotlarga liq to'la bozor rastalari, yo'l chetlarida bir tekisda qurilgan savdo do'konlari-yu maishiy xizmat binolari, mehnatkash xalqimizning fidokorligi... Osmon ostidagi ochiq muzeyga aylangan yurtimizdan ziyorat qiluvchilarning izi uzilmaydi, bundan qalbimiz g'ururga to'lishi tabiiy. Alxusus, bunyodkorlik borasida hali amalga oshirishimiz zarur bo'lgan yumushlarimiz har sohada bisyor.

Hatto ona tili, o'zbek tili va ularning ta'limi borasida yutuqlarimiz ham, hal etishimiz zarur bo'lgan muammolarimiz ham yetarli. Ammo bu borada yuragimizga "xiralik" solayotgan yana bir jihat ham borki, ular haqida gapirmaslikning iloji yo'q. Ona tilimizning sofligini saqlashga faqat mutaxassislar emas, shu zaminning har bir farzandi teng barobarda mas'ul.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo'lgan millati o'zbek yurtdoshlarimizning yozishmalarini (muayyan mavzuga yozilgan mulohazalarini) bir muddat kuzatdik. Ko'pchilikning nutqida – tilimizda juda go'zal ifodalari mavjudligiga qaramay – varvarizm(sababsiz holatda o'z nutqlarida chet so'zlarni qo'llash orqali tilni buzish)ga berilish odatiy holga aylanib qolganini bildik. Jumladan,

Челленж – chaqiriq, da'vat, chorlov

Дайджест– qisqa izoh

Стартап – yangi loyiha, tashabbus, ilk qadam

Имидж – tashqi ko'rinish

Фейк – soxta

Портфолио – internet tizimidagi yig'ma jild

Кешбек – ulush, qaytim

Значит –demak, alqissa, shunday qilib, sirasini aytganda

Так что – shunday ekan

Чёрт побери – jin ursin

Мне все равно – menga baribir

Добится – erishish

Например – masalan, jumladan, chunonchi

Надоела – bezor qilmoq, jonga tegmoq, to'ydirib yubormoq

Беспонтовый – hech narsaga arzimaydigan, qadrsiz, ahamiyatsiz; sifatsiz, yomon; nafratga loyiq; foydasiz

Дебила – tushunmaydigan: esi past, tentak; ahmoq, jinni; nenar, ovsar, kalvak.....

Пока – хаур; hali, hozirda

Мастер-класс – mahorat darsi

Тютор – tarbiyachi

Вакансия – bo'sh ish o'mi

Онлайн – virtual uchrashuv

Офлайн – yuzma-yuz uchrashuv

Сам мой – O'zing yuv (O'zing tozala)

Мы открылис – Biz ish boshladik

Мы скоро откроемся – Tezda ish boshlaymiz (Hademay ish boshlaymiz) va h.

Bunday so'zlar miqdori, ko'proq, ijtimoiy tarmoqlar, media vositalar orqali, ko'chalardagi reklamalar sabab nutqimizga kirib kelyapti. Bu ko'r-ko'rona taqlidchilik, e'tiborsizliklar oqibati haqida ham jiddiy o'ylab ko'rishimiz shart.

Shu o'rinda hazrat mir Alisher Navoiyning "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" degan hikmatlarini yana bir karra eslatib o'tmoqni joiz deb bildik. Yuqorida sanab o'tganlarimiz: ko'r-ko'rona taqlidchilik, e'tiborsizliklar milliy tilimizga, xalq ma'naviyatiga bo'lgan loqaydlikdan boshqa narsa emas. Bugun asrlar davomida elimiz qadrlab kelgan ne'matlarga e'tiborsizlik qilsak, bilib qo'yaylikki, el shunday kishilarning o'zini ham, borligini ham e'tibordan soqit etadi. (Bu – xalqimiz tarixida mudom sinovdan o'tib kelayotgan holat.) Dunyoda insonga el-yurt e'tiboridan chetda qolishdan ko'ra dahshatliroq jazo bo'lmasa kerak.

Ajdodlarimiz butun umrlari davomida intilib kelgan til mustaqilligiga biz erisha olgan ekanmiz, uni ko'z qorachig'imizdek asrashga, sofligini saqlashga, imkoniyatlarimiz darajasida boyitib borishga mas'ulmiz. Zero, bu mas'uliyat bizning ona tilimizga bo'lgan ehtiromimiz belgisi sifatida namoyon bo'laveradi.

Ona xalqim, zamondoshim, tildoshim, dildoshim, onalarimiz kabi bemimmat xizmat qilayotgan, milliylik tafti bilan borlig'imizni ilitib, borligimizni dunyoga tanitayotgan ONA TILIMIZning boshiga toj kiygan kuni barchamizga muborak bo'lsin.

Shukronalar bo'lsinki, o'zbekimiz! Shunday ekan, o'zbek tilimizdagi ajdodlardan meros milliy xotirani yo'qotmaslikka, uning sofligi, tarovatini saqlashga, boyligini oshirishga burchlimiz. Demak, o'zbekim tilidagi milliy xotira o'lmasin.

TILIMIZ BAYRAMI YIL 12 OY BO'LSIN
yoxud o'zbek tili rivoji va takomili yo'lida ko'lamli faoliyat...

Toirova Guli Ibragimovna
BuxDU filologiya fanlari doktori(DSc), professor
Babayarov Maxmur Xamitovich
SamDU mustaqil tadqiqotchisi,f.f.f.d.(PhD)

Vatan bilan bog'liq har bir narsaga manguilik nuqtayi nazari bilan qarash joiz. Uning tarixini va obro'yini farzandlik muhabbati va sadoqati ila barpo etsakkina, bu e'tiqodimiz matonatimiz ila qilayotgan ishimizda kelajak avlodning istak va umidlari o'z aksini topadi.

Axamoniylar, Makedoniyaliklar, Mo'g'ulistonlig-u o'russiyaliklar yetkazgan zulumlar yurakka bitilgan chandiqlik har on o'zi haqida bildirib turadi. Esdaliklar va xotiralar yig'indisi tajribadir.

Bugungi astoydil xulosamiz – biz mustaqillik arqonini hech qachon qo'yib yubormaymiz. Mustaqillikni davlatsiz, davlatni xalqsiz, xalqni tilsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Eng katta boyligimiz, hurligimiz, u bizni narsalarga emas, o'zimizga xon, o'zimizga bek bo'lishimizni, tilimizni buyuk-bunyodkor tillarning oldingi qatorida bo'lishini ta'minlaydi. Chinakam xalq – chinakam millat bo'laylik desak, O'zbekistonimizga, uning tiliga hamisha hurmat tuyg'usi bilan yashaylik!

MUNDARIJA

RASMIY OCHILISH	3
Xamidov Obidjon Xafizovich. TIL – MILLAT KO‘ZGUSI, MILLAT QUYOSHI	3
Amonov A.A. TIL – MA‘NAVIYAT KO‘ZGUSI.....	4
Rajabov D.Z. DAVLAT TILIGA EHTIROM.....	5
Axmedov A.R. TIL MILLAT G‘URURI	6
Ramilya Yarullina Yıldırım. TÜRKIYE’DE TÜRK DÜNYASI EDEBIYATLARIYLA İLGİLİ ÇALIŞMALAR ÜZERINE KISA BİR DEĞERLENDİRME	7
Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O‘ZBEGIM TILIDAGI MILLIY XOTIRA O‘LMASIN ...	10
Toirova Guli Ibragimovna, Babayarov Maxmud Xamitovich. Tilimiz bayrami yil 12 oy bo‘lsin yoxud o‘zbek tili rivoji va takomili yo‘lida ko‘lamli faoliyat... ..	13
To‘xсанov Q.R. O‘ZAGIMIZNING, O‘ZLIGIMIZNING BOSH BELGISI.....	17

1-SHU‘BA. ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY

MASALALARI

MASALALARI	19
Abuzalova M.Q. TIL – MILLIY MA‘NAVIYATIMIZ BULOG‘I	19
Ahmadova U. Sh. PERIFRAZALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATI	22
Ahmedov A.R. AREAL LINGVISTIKANING METODOLOGIK VA METODIK ASOSLARI	24
Alimova S. S. OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGANISHDA AYUB G‘ULOMOV ILMIY TADQIQOTLARINING AHAMIYATI	26
Avliyoyqulova L. B. SOHA LINGVISTIKASINI RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI.....	28
Axmatova I. H. TOPONIMIK TADQIQOTLARNI MAVZU GURUHLARIGA KO‘RA O‘RGANISH	31
Barnoyeva Z. G‘AZZOLIY FIKRLARGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV.....	33
Berdiyev Husan Xolnazarovich. TIL TA‘LIMIDA UMUMFILOLOGIK MANBALARNING O‘RNI	36
Jo‘rayeva Z. GENDERDA ERKAKLAR NUTQINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI: STEREOTIPLAR VA FARQLAR.....	37
Mardonova S. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINXRON VA DIAXRON SO‘Z YASALISHI	39
Oripova P. V., Toirova G. I. MINNATDORCHILIK SARKAZM SIFATIDA.....	42
Sattorova M. Sh. PAREMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI	45
Sayidova G.Y. TILIMIZ RIVOJIGA TO‘SQINLIK QILAYOTGAN BA‘ZI MUAMMOLAR ..	49
Toirova G.I., Baxshilloeva G.V. O‘ZBEK DIALEKTLARI LEKSIK MA‘LUMOTLAR BAZASINI YARATISHNING AMALIY BOSQICHLARI.....	52
Xayrulloeva G. F. MODAL SO‘ZLAR HAQIDA AYRIM FIKRLAR.....	55
Yuldasheva D. N., Umarova Dildor Faxriddinovna. DISKURS VA NOVERBAL VOSITA.....	58

2-SHU‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINI O‘QITISHDA INNOVATSIYA HAMDA

INTEGRATSIYA.....

INTEGRATSIYA.....	60
Adizova Nilufar Istamovna. TURIZM SO‘ZLARI HAQIDA	60
Ahmadova U. Sh., Barotova S.M. BADIY USLUBDA PERIFRAZALAR.....	64
Ahmadova U. Sh., Shuhratova Y. Sh. DEHQONCHILIK SOHASIDA PERIFRAZALAR	66
Ahmedov A. R., Reimbergenova J.Sh. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI FONETIKASI	70
Azimova A. O‘. TOSHPO‘LAT AHMAD SHE‘RIYATIDA AYRIM CHEGARALANGAN QATLAM SO‘ZLARI HAQIDA	72
Babayarov M. X. SPORT SOHASIDA PERIFRAZALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATI	74
Ermamatova M. I. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA INNOVATSIYA HAMDA INTEGRATSIYA	76
Hamidova M. G‘. “QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA LINGVOPSIXOLOGIK HOLAT TASVIRI.....	78

Hamroyeva M. R., Hamidova D. M. ABDULLA QAHHOR ASARLARINING BADIYIY TILI TAHLILIDAN.....	82
Hamroyeva M.R. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI TUZISHDA INNOVATSION YONDASHUV	84
Hikmatova G. O'QUVCHILAR NUTQIDA SO'Z-GAPLAR ETIKASI.....	85
Latifova M.Y. MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA ERKIN O'XSHATISHLAR.....	87
Nazarova S.A., Yoqubova Sh.Y. ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA FE'LLI BIRIKMALARNING NUTQIY VOQELANISHI.....	89
Nuritdinova Sh.S., Raximova N. B. SO'Z KO'CHMA MA'NOLARI USTIDA ISHLASHNING INNOVATSION USULLARI.....	91
Primov Sh. M. KICHIK HAJVIY JANRLAR TILI VA USLUBI.....	94
Raimova A. "DUNYONING ISHLARI" ASARIDAGI KO'CHMA MA'NODAGI SO'ZLAR VA ULARNING BADIY AHAMIYATI	98
Raxmonqulova M. T. KONSEPTOSFERANING DUNYO KOGNITIV TASVIRI BILAN ALOQADORLIGI.....	101
Samandarova G. Y. RUS XALQ MAQOLLARIDA SONLAR	102
To'xtayev Sh. F. TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI BADIY OBRAZLARI TAHLILI.....	105
Xojiyeva M.Y. O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	107
Xoldorova Kh. THE RELEVENCE OF THE STUDY OF THE FIELD OF "TOURISM" IN MODERN LINGUISTICS.	109
Юсупова А. Ш., Хамроева М. Р. МЕТОДОЛОГИЧЕСКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ФОРМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТАХИРА МАЛИКА.....	111

3-SHU'BA. SOHA LUG'ATLARINI TUZISH VA TERMINOLOGIYA

MASALALARI..... 114

Asadov T. H. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATIDA ORALIQ SO'ZLAR IFODASI.....	114
Astanova G. A. TARJIMA LUG'ATLAR YARATISH MASALALARGA DOIR.....	116
Navro'zova M. G'. AXBORIY MATNLARDA O'ZBEK TILINING SOFLIGI MUAMMOSI	120
TERMIN, ATAMA VA SO'Z O'RTASIDAGI MUNOSABAT.....	122
Rajabov D.Z. QO'SHIQ VA UNING ETIMOLOGIK IZOHI.....	125
Sharipova M. J., Bafoyeva D. E. QARINDOSHLIK MAQOLLARIDA GETERONIMIK MUNOSABAT	127
Kadirov Boburjon Muhammadganiyevich. SHARQIY YEVROPA HAMDA MARKAZIY OSIYO MITAQAALARIDAGI HAJVIY JANRLARNING KELIB CHIQISHI.	130

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Адади 10 нусха. Ҳажми 136 бет. Формат А4. Буюртма 640.